

## KIBERMAKON SHAROITIDA AXLOQ VA MAS'ULIYAT: KLASSIK VA ZAMONAVIY TALQINLAR

Ochilov Abrorxon Qiyom o'g'li <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi.

### MAQOLA MALUMOTI

### ANNOTATSIYA:

#### MAQOLA TARIXI:

Received: 27.05.2025

Revised: 28.05.2025

Accepted: 29.05.2025

#### KALIT SO'ZLAR:

kibermakon, axloq, mas'uliyat, texnologiya, axborot jamiyati, sun'iy intellekt, klassik axloq, kiberfalsafa, ontologiya, aksiologiya

Ushbu maqolada kibermakonning rivojlanishi sharoitida axloq va mas'uliyat tushunchalarining klassik va zamonaviy talqinlari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Virtual muhit, sun'iy intellekt va raqamli algoritmlar orqali insonning axloqiy pozitsiyasi qanday o'zgarayotgani, texnologik taraqqiyot jarayonida axloqiy tanlov va javobgarlik masalalari qanday qayta shakllanayotgani o'rganiladi. Zamonaviy kiberfalsafiy yondashuvlar asosida yangi axloqiy paradigmalar, subyektivlik va erkinlik konsepsiyalari tahlil qilinadi.

**KIRISH.** Bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan tobora integratsiyalashgan jamiyatda insonning axloqiy pozitsiyasi va mas'uliyati yangi kontekstda shakllanmoqda. Raqamli makon, sun'iy intellekt va algoritmik boshqaruv tizimlarining kengayishi axloqiy tanlovning shaklini, hajmini va ongli nazorat doirasini o'zgartirib yubormoqda. Axloqiy qarorlar endilikda nafaqat individual subyekt tomonidan, balki mashina tizimlari va avtomatlashtirilgan algoritmlar bilan birgalikda qabul qilinmoqda. Bu esa klassik axloq falsafasida shakllangan inson mas'uliyati va erkinligi tushunchalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt bilan bog'liq etik muammolar, ma'lumotlarga asoslangan algoritmik diskriminatsiya, shaxsiy hayot daxlsizligi va kiberjavobgarlik kabi masalalar zamonaviy axloqshunoslikda dolzarb o'rinni egallaydi.<sup>101</sup>

Axloqiy va etik muammolarni zamonaviy raqamli texnologiyalar kontekstida tahlil qilishda birinchi navbatda, klassik falsafa tamoyillariga murojaat etish zarur. Kant

<sup>101</sup> Floridi L. The Philosophy of Information. Oxford University Press

axloqshunosligida inson aql-idrok asosida qaror qabul qiluvchi, avtonom subyekt sifatida tasvirlanadi. Unga ko'ra, axloqiy harakatlar umumiy qonunga aylanadigan prinsip asosida baholanadi. Biroq bugungi texnologik muhitda, xususan algoritmik tizimlarda inson emas, balki dasturiy kod va ma'lumotlar bazasi qaror qabul qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu holat mas'uliyat va erkinlikni insondan "ajratib", uni tizimga yuklash xavfini tug'diradi.

Sun'iy intellekt asosida ishlovchi algoritmlar insoniy tanlovni o'z zimmasiga olgan holatda, kim axloqiy subyekt bo'lib qoladi? Ushbu savol kiberfalsafa doirasida dolzarb muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Bir qarashda, bu tizimlar faqat vosita sifatida talqin qilinadi, ammo real hayotda ularning natijalari inson hayotiga bevosita ta'sir etadi. Misol uchun, sun'iy intellekt asosida ishlovchi yuzni aniqlash texnologiyalari noto'g'ri identifikatsiya orqali diskriminatsion oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bunday holatda javobgarlik kim zimmasiga tushadi — dasturchimi, foydalanuvchimi yoki tizimning o'zi? Bu savollar axloqiy mas'uliyat tushunchasining chegaralarini kengaytiradi.

Zamonaviy kiberaxloqshunoslikda mas'uliyat endi faqat subyektning niyatiga asoslanmaydi, balki uning texnologik muhitda tutgan o'rniga bog'liq bo'ladi. Floridining "infosfera" nazariyasiga ko'ra, inson va texnologiya o'rtasida keskin chiziqli qolmaydi. Ularning o'zaro ta'siri orqali yangi ontologik birlik — axborot mavjudoti shakllanadi. Shu sababli, axloq ham yangi shaklga ega bo'lib, inson–texnologiya munosabatlari doirasida ko'rib chiqilishi kerak bo'ladi.<sup>102</sup>

Hayles tomonidan ilgari surilgan "posthuman" konsepsiyasida inson axborot oqimi va kibernetik interfeyslar bilan integratsiyalashgan mavjudot sifatida qayta talqin qilinadi. Bu yondashuvda axloqiy pozitsiya statik emas, balki dinamik va kontekstga moslashuvchan bo'lib, texnologik sharoitda doimiy ravishda o'zgaradi. Shu bilan birga, bu modelda erkinlik va javobgarlik tushunchalari susayib ketmasligi kerak. Chunki shaxsiy tanlov, onglik harakat va natijaga mas'ul bo'lish qadimiydan beri axloqning asosiy belgilari sifatida tan olinib kelgan.

Kibermakon sharoitida axloq va mas'uliyat masalalari zamonaviy texnologik taraqqiyot fonida nafaqat ontologik, balki epistemologik va aksiologik murakkablik kasb etmoqda. Raqamli muhitda inson o'zining klassik axloqiy subyekt sifatidagi rolini turlicha shakllarda qayta kashf qilmoqda. Bunda inson faqat axloqiy qarorlar qabul qiluvchi emas, balki algoritmlar tomonidan yo'naltirilgan, nazorat ostidagi axloqiy faoliyat ishtirokchisiga aylanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda algoritmlar yordamida axborot tanlovi, fe'l-atvor shakllanishi va axloqiy me'yorlarning sun'iy ravishda taklif etilishi bu jarayonni murakkablashtiradi.

Masalan, "filter bubble" va "echo chamber" hodisalari insonning axborot olamidagi tanlovlarini cheklab, unga faqat o'xshash fikrlarni taklif qilishi orqali onglik axloqiy qaror qabul qilish imkoniyatlarini susaytiradi. Shunday sharoitda axloqiy tanlovni onglik va erkin

<sup>102</sup> Hayles N. K. How We Became Posthuman. University of Chicago Press

deb atash mumkinmi? Bu savol zamonaviy kiberaxloq falsafasining markaziy masalalaridan biridir.

Kibermakon insoniyat tarixidagi axloqiy tushunchalarning evolyutsiyasiga yangi bosqich olib keldi. An'anaviy jamiyatlarda axloq ko'p hollarda din, urf-odat, qonun bilan uyg'unlikda shakllangan bo'lsa, bugungi kunda raqamli makon ushbu mezonlarning nisbiyligini ko'rsatmoqda. Masalan, axborot almashish tezligi va erkinligi turli madaniyatlarda taqiqlangan yoki nojoiz deb hisoblangan kontentning global miqyosda tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat axloqiy chegaralarning universalligi haqidagi klassik tasavvurlarga qarshi boradi.

Axloqiy subyektivlik raqamli makonda yangi shakllarni kasb etmoqda. Insonning virtual identiteti, ya'ni "kiber-shaxs" o'ziga xos axloqiy pozitsiyaga ega bo'lgan mustaqil metafora sifatida ko'rilmogda. Bu kiber-subyekt o'zining virtual hayotidagi harakatlari, axborot iste'moli va ta'siri orqali real hayotdagi axloqiy obrazini shakllantiradi. Masalan, anonimlik ostidagi xatti-harakatlar mas'uliyat hissini kamaytiradi, natijada "tarmoq axloqsizligi" (cyber incivility) holatlari avj oladi. Bu jarayonlar klassik axloqiy tafakkurda nazarda tutilmagan yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda.<sup>103</sup>

Yana bir muhim jihat — kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumot daxlsizligi bilan bog'liq axloqiy dilemmalar. Bugungi kunda sun'iy intellekt algoritmlari orqali shaxsga oid ma'lumotlar to'planadi, tahlil qilinadi va ko'pincha shaxs roziligisiz tijorat yoki siyosiy maqsadlarda foydalaniladi. Bu esa axborot ustidan egalik, shaxsiy daxlsizlik va raqamli etik mas'uliyatni markaziy masalaga aylantiradi. Ayniqsa, raqamli jamiyatda "raqamli fuqaro" degan yangi axloqiy maqom shakllanmoqda: bu subyekt nafaqat huquqlarga, balki axborot madaniyati va kiberjavobgarlik tamoyillariga ega bo'lishi kerak.

Boshqa tomondan, zamonaviy texnologik muhitda kollektiv axloq tushunchasi individual axloqiy qarorlar bilan ziddiyatga kirishi mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yoki sun'iy intellekt platformalarida foydalanuvchi axloqiy mas'uliyatdan ko'ra, algoritmnini aldash, manipulyatsiya qilish yoki noto'g'ri ma'lumotlar tarqatish orqali o'z manfaatlarini ko'zlashi mumkin. Bu holat yangi, "kiberutilitarizm" deb ataluvchi axloqiy pozitsiyani shakllantirmoqda: ya'ni foydalilik va natija asosidagi harakatlar axloqiy deb talqin qilinmoqda. Bu esa klassik deontologik va aretik axloqiy tizimlar bilan keskin ziddiyatga kiradi.

Axloq va mas'uliyat tushunchalari raqamli mehnat, sun'iy ong bilan ham bevosita bog'liq. Masalan, avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish tizimlari (sud jarayonlarida Aidan foydalanish, ishga olishda algoritmik tanlov) axloqiy javobgarlikni noaniq aktorlar tarmog'iga tarqatib yuboradi. Shunday tizimlarda, agar diskriminatsion qaror qabul qilinsa, kim javobgar bo'ladi? — dasturchimi, tashkilotmi, yo sun'iy intellekt o'zi? Bu savollar

<sup>103</sup> Stiegler B. *Technics and Time*. Stanford University Press



javobsiz qolmoqda va zamonaviy falsafa bu borada konseptual yechimlar taklif etishga harakat qilmoqda.

Shuningdek, global raqamli axloqni shakllantirish yo'lida transmilliy etik platformalar va xalqaro kelishuvlarning zarurligi ortmoqda. UNESCO, IEEE, EU kabi tashkilotlar axborot etikasi va sun'iy intellekt etikasi bo'yicha normativ hujjatlar ishlab chiqmoqda. Ammo ularning tatbiqot mexanizmlari, ijtimoiy ierarxiyalari va iqtisodiy manfaatlar fonida zaiflik kasb etadi. Demak, raqamli axloqiy tizimlar faqat texnik me'yorlar emas, balki madaniy, siyosiy va falsafiy qadriyatlarga asoslangan bo'lishi lozim.<sup>104</sup>

Ushbu jarayonlar bizdan nafaqat yangicha falsafiy yondashuvlar, balki yangi axloqiy til, etik paradigma va mas'uliyat strukturasi ishlab chiqishni talab qilmoqda. Kibermakon faqat texnologik inshoot emas, balki aksiyologik konstruksiya sifatida tushunilishi kerak. Axloq va mas'uliyat bu makonda faqat "shaxsiy fazilat" emas, balki ijtimoiy tuzilma va raqamli ijtimoiy hayotni barqarorlashtiruvchi asosiy komponentga aylanmoqda.

Kiberfalsafa klassik yondashuvlar bilan zamonaviy muammolar o'rtasidagi tafovutlarni ko'rsatib berar ekan, mas'uliyatning qayta taqsimlanishi, axloqiy qarorlar dinamikasining o'zgarishi va texnologiyalarning ijtimoiy strukturaga ta'siri kabi masalalarni chuqur tahlil qiladi. Masalan, Latourning aktyor-tarmoq nazariyasida inson va texnologik obyektlar teng huquqli aktyor sifatida ko'riladi. Bu holatda mas'uliyat ierarxik emas, balki tarmoq asosida taqsimlanadi. Shunga qaramay, bu model texnologiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi asimmetrik ta'sirini yetarlicha aks ettira olmaydi.

Zamonaviy texnologik taraqqiyotning falsafiy-metodologik tahlilida Mark Coeckelbergh tomonidan ilgari surilgan "texnologik muloqot" nazariyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Coeckelbergh texnologiyalarni shunchaki asboblari sifatida emas, balki o'zaro muloqotni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi agentlar sifatida ko'radi. U muloqotning texnologik vositalar orqali yangidan shakllanishi insonning o'zini idrok etish va ijtimoiy aloqalar sifatiga tub ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shunga qaramay, Coeckelbergh nazariyasi texnologik vositalarning siyosiy va iqtisodiy manipulyativ foydalanilishi tahdidlarini yetarlicha tahlil qilmaydi.

Kiberfalsafa va texnologik taraqqiyot kontseptsionalari falsafiy-metodologik jihatdan zamonaviy tafakkurdagi antropologik, ontologik va aksiologik siljishlarni aks ettiradi. Biroq, bu kontseptsionalarni tanqidiy tahlil qilish zarur, chunki texnologiya nafaqat imkoniyatlar ochadi, balki insoniyatning erkinlik, adolat va mohiyatiga oid qadriyatlarini ham tubdan qayta shakllantiradi.<sup>105</sup>

Kiberfalsafa va texnologik taraqqiyot kontseptsionalarining falsafiy-metodologik tahlili zamonaviy epistemologiya va ontologiyaning kesishgan nuqtasida joylashgan, u texnologiyaning muttasil rivojlanishi va insoniyatning o'z-o'zini anglash jarayonlariga

<sup>104</sup> Latour B. Reassembling the Social: An Introduction to Actor-Network-Theory. Oxford University Press

<sup>105</sup> Feenberg A. Questioning Technology. Routledge

nisbatan chuqurroq yondashishni talab qiladi. Kiberfalsafa texnologik taraqqiyotning natijasi sifatida yuzaga kelgan yangi ontologik shakllarni, sun'iy ong va sun'iy intellekt kabi fenomenlarni o'rganar ekan, u insoniyatning aqliy va axloqiy cheklovlari, shuningdek, bilish imkoniyatlari doirasini qayta ko'rib chiqadi. Shu munosabat bilan, texnologik taraqqiyot faqat moddiy-texnik vositalarning rivojlanishi emas, balki insoniy mavjudotning ontologik holatida sifat o'zgarishlarini yuzaga keltiruvchi kuch sifatida ham namoyon bo'ladi.

Texnik qurilmalarning takomillashuvi va insonning kibernetik shaklga o'tishi – ya'ni inson organizmi va sun'iy tizimlar o'rtasidagi interfeyslarning rivojlanishi – o'z navbatida epistemologik strukturalarni o'zgartirib, bilish subyekti va obyekt o'rtasidagi an'anaviy chegaralarni yo'qotadi. Bunday sharoitda kiberfalsafa insoniy ong va aql masalalarini, sun'iy ong va ong simulyatsiyasi kabi konseptlarni fundamental darajada qayta talqin qiladi. Ong va aqlning sun'iy modellashtirilishi esa bilish jarayonining o'zini ham radikal tarzda yangidan tushuntirishni talab qiladi, bu esa epistemologik asoslar va metodologik yondashuvlarning transformatsiyasiga olib keladi.

Falsafiy-metodologik yondashuvlar texnologik taraqqiyot va kiberfalsafaning bu murakkab simbiozini tushunishda markaziy rol o'ynaydi. Epistemologiya va ontologiya asosida shakllangan metodologik konstruksiyalar texnologiya va inson o'rtasidagi o'zaro aloqaning tub mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Ayniqsa, texnologik vositalar orqali kengaytirilgan bilish amaliyotlari – raqamli interfeyslar, sun'iy tarmoqlar, neyrotexnologik implantlar orqali modifikatsiyalangan bilish shakllari – insonni nafaqat o'z epistemik kontekstida, balki yangi ontologik makonda qayta aniqlash zaruratini tug'diradi.<sup>106</sup>

Bundan tashqari, estetik va axloqiy o'lchamlar bu tahlilning ajralmas qismi sifatida ko'rinadi, chunki texnologik taraqqiyotning oqibatlari nafaqat bilim va mavjudlik darajasida, balki qadriyatlar tizimi va axloqiy mezonlar sohasida ham chuqur iz qoldiradi. Sun'iy ongning estetik shakllanishi va texnologik mavjudotlar bilan bog'liq axloqiy dilemma kiberfalsafaning zamonaviy diskursida markaziy mavzuga aylanadi. Shu sababli, texnologik taraqqiyotning falsafiy tahlili faqat empirik natijalarni emas, balki insoniyatning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini ham o'z ichiga oladigan yaxlit konseptual maydonni shakllantiradi.

Kiberfalsafa va texnologik taraqqiyot kontseptsiyalarining falsafiy-metodologik tahlili insonning o'z tabiati, bilish imkoniyatlari va axloqiy javobgarligi haqidagi an'anaviy tasavvurlarni tubdan qayta ko'rib chiqishga undaydi. Bu jarayon yangi epistemologik me'zonlar va ontologik shakllarni talqin qilish bilan birga, axloqiy-estetik nuqtayi nazardan ham insoniyatning o'z taraqqiyoti ustidan ongli nazorat o'rnatish ehtiyojini taqozo etadi.

Zamonaviy kiberfalsafa va texnologik taraqqiyot kontseptsiyalarining falsafiy-metodologik tahlilida texnologik mediatsiya g'oyasi alohida o'rin tutadi. Don Ihde

<sup>106 106</sup> Ihde, D. (1990). Technology and the Lifeworld: From Garden to Earth. Indiana University Press. 75-bet

tomonidan ilgari surilgan texnologik mediatsiya nazariyasiga ko'ra, inson tajribasi va ong shakllanishi texnologik artefaktlar vositasida uzluksiz o'zgarib boradi. Ihde texnologiyani shunchaki vosita emas, balki inson va dunyo o'rtasidagi faol o'zaro ta'sir elementi sifatida tasvirlaydi. Shu bilan birga, tanqidiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Ihde modeli texnologik vositalarning kuch muvozanatlari va dominant ideologiyalarni shakllantirishdagi rolini ikkinchi planga surib qo'yadi. Peter-Paul Verbeek esa texnologiyaning "etik media" sifatidagi rolini rivojlantirib, texnologiyalar insoniy axloqiy xatti-harakatlarni shakllantirishdagi o'rnini yoritadi. Uning fikricha, texnologik artefaktlar normativ xatti-harakatlarga ko'maklashadi va ularga yo'l-yo'riq beradi. Biroq, Verbeekning yondashuvi texnologik strukturani shakllantiruvchi sotsiopolitik kuchlarning noaniq ko'rinishiga haddan ziyod optimistik yondashadi, deb tanqid qilinadi.

Texnologik taraqqiyotning ontologik mezonlari doirasida Manuel DeLanda tomonidan ilgari surilgan assemblage nazariyasi texnologiya va jamiyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni tavsiflaydi.<sup>107</sup>

Axloqiy subyekt pozitsiyasining raqamli makondagi yangicha shakllanishi Bernard Stiegler tomonidan ilgari surilgan "protezli ong" tushunchasida ham o'z ifodasini topadi. Unga ko'ra, inson tafakkuri texnologik vositalar bilan shakllanadi, ya'ni inson texnologiyadan mustaqil mavjudlik emas. Bu fikr texnologiyaning axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi rolini yanada murakkablashtiradi.

#### **Xulosa**

Kibermakon sharoitida axloq va mas'uliyat tushunchalari tubdan qayta talqin qilinmoqda. Klassik axloqiy yondashuvlar insonni avtonom, ongli subyekt sifatida ko'rgan bo'lsa, zamonaviy texnologik muhit bu tasavvurni murakkablashtirmoqda. Sun'iy intellekt, raqamli algoritmlar, kibernetik interfeyslar orqali insonning axloqiy tanlovi ijtimoiy va texnologik muhitga bog'liq shaklda namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, zamonaviy axloqshunoslikda inson–texnologiya munosabatlarini ontologik va aksiologik mezonlar asosida qayta ko'rib chiqish zarur. Maqola orqali bu muammolar chuqur yoritilib, axloqiy subyekt pozitsiyasining yangi paradigmasi ishlab chiqiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Floridi L. The Philosophy of Information. Oxford University Press
2. Hayles N. K. How We Became Posthuman. University of Chicago Press
3. Stiegler B. Technics and Time. Stanford University Press
4. Latour B. Reassembling the Social: An Introduction to Actor-Network-Theory. Oxford University Press
5. Feenberg A. Questioning Technology. Routledge

<sup>107</sup> DeLanda, M. (2006). A New Philosophy of Society: Assemblage Theory and Social Complexity. Continuum. 45-bet.